



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

**HOZIRGI O‘ZBEK TILI LEKSIK SATHIGA DOIR BA’ZI
MASALALAR**
**SOME ISSUES RELATED TO THE LEXICAL LEVEL OF THE
MODERN UZBEK LANGUAGE**

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/UTYY7818

Abjalova Manzura Abdurashetovna,
*Filologiya fanlari doktori (DSc),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti*
E-pochta: abjalova.manzura@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1927-2669

Annotatsiya. *Globallashuv, ilm, texnologiya, raqamli iqtirodiyot rivoji bilan tilshunoslik arsenali – leksikologiyada ko‘p o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, davr o‘tishi bilan yangi tadqiqotlarni talab qiladi. O‘zbek tili leksik sathining doimiy ravishda yangilanib borayotgani, mavjud nazariy qarashlar va amaliy yondashuvlar doirasida yangi tadqiqot yo‘nalishlarini yuzaga keltirmoqda. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) sohasi amaliy tilshunoslik bilan uzviy aloqadorligi asosida o‘rganiladi. Mazkur maqolada o‘zbek tili leksikologiyasidagi ayiril masalalar tahlil qilindi. Tadqiqotda o‘zbek tilida leksik birliklarning ko‘p ma‘nolilikka egaligi va bu holat NLP sohasida jiddiy tadqiqotlarni talab qilishi ochiqlangan. Shuningdek, omofon va paronim birliklarning farqli belgilari misollar asosida yoritilib, ularning zamonaviy o‘zbek tili tizimidagi o‘rni aniqlangan. Maqolaga doir qilingan tadqiqot natijalari tilning dinamik rivojlanishini aks ettiruvchi lingvistik modellarni yaratish va NLP tizimlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *amaliy tilshunoslik, leksikologiya, ko‘p ma‘no, o‘z ma‘no, ko‘p ma‘no, neologizm, o‘zlashma, eskirgan so‘zlar, “tirilgan” so‘zlar, omonim, omofon, paronim.*


Annotatsion. *Globalization, the development of science, technology, and digital literacy are bringing about many changes in the linguistic arsenal - lexicology, requiring new research over time. The lexical level of the Uzbek language is constantly evolving, giving rise to new directions within existing theoretical frameworks and practical approaches. The field of Natural Language Processing (NLP) is studied in close connection with applied linguistics. This article analyzes several key issues in Uzbek lexicology. The study reveals that the polysemy of lexical units in the Uzbek language requires in-depth research within the NLP domain. Furthermore, the distinctive features of homophones and paronyms are elucidated through examples, and their roles within the modern Uzbek linguistic system are defined. The findings of this research have practical significance for developing linguistic models that reflect the dynamic evolution of language and for improving NLP systems.*

Keywords: *NLP, applied linguistics, lexicology, polysemy, proper meaning, polysemy, neologism, appropriation, obsolete words, “resurrected” words, homonym, homophone, paronym.*

Tilning leksikologiya – leksik sathi tilshunoslikning boshqa sohalariga qaraganda ko‘proq o‘zgarishlarga duch keladigan qismidir. Bugungi kunda raqamli texnologiyaga moslashtirish uchun amalga oshirilayotgan ishlar qatorida tilning leksik qatlami ham amaliy jihatdan tadqiq etilishini talab qiladi. Tabiiy tilning qayta ishlanishi (NLP)da [Abjalova, 2020: 110], barcha sathlar muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zning leksik-semantik xususiyatlarining aniq o‘rganilishi semantik tasnif mukammalligi va to‘liqliligini ta‘minlaydi. Til korpuslarida [Abjalova, 2022: 176] kontekstual semantik tahlilning to‘g‘ri amalga oshirilishiga erishiladi. Shu boisdan NLP ishi keng qamrovlilik tamoyili [Abjalova, 2021: 103], [Abjalova, 2022:123-139] asosida leksik qatlamni qamrab olishdan boshlanadi.

Amaliy tilshunoslik – tilning tuzilishi, funksiyasi va faoliyati haqidagi nazariy-ilmiy bilimlarni inson amaliy faoliyatining turli sohalarida qo‘llash, shuningdek, nolingvistik yo‘nalishlarda lisoniy bilimlarni tatbiq etish nazariyasini yaratish bilan bog‘liq tilshunoslik yo‘nalishi hisoblanadi. Amaliy tilshunoslikda tilni o‘rganish bilan bog‘liq amaliy muammolarni hal qilish, boshqa sohalarda tilshunoslik nazariyasini amaliy qo‘llashni ixtisoslashtirish; nazariy tilshunoslik qoidalarini tekshirish va amaliy tilshunoslik tomonidan yaratilgan mahsulotlarning samaradorligini tadqiq etishga e‘tibor qaratiladi.

Tilning boyligi so‘z miqdori bilan belgilanmaydi. Aslida, tilning so‘z boyligi ma‘nodosh so‘zlarning ko‘pligi bilan belgilanadi. Bir so‘zning ma‘nodoshlari qancha ko‘p bo‘lsa, fikrni rang-barang ifoda etish, tarjimani to‘g‘ri chiqarish imkoniyati shunchalik oshadi. O‘zbek tili ham so‘zga boy va juda ko‘p so‘zlarning (deyarli har bir so‘zning) ma‘nodoshi mavjud [Dadaboyev, Abjalova, Rashidova, 2023: 617]. Tasavvur qiling, til – bu qo‘l, shunda kaft – tilning yadroviy xususiyatlari: fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi, leksikologiyasi. Barmoqlar – nutqiy uslublar (1a-chizma). Yadrodagi leksikologiyadan ushbu besh uslubga (barmoqqa) harakat uchun imkoniyat uzatiladi (barmoqqa qon o‘tish joyi), barmoq va kaft birlashsa, bir kuch (jips butunlik) bo‘ladi (1b-chizma).



1a-chizma. Til imkoniyati va holatining qo‘l orqali ifodalanishi

1b-chizma. Til imkoniyati uning barcha xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

O‘rganish sohasini so‘z va uning lug‘aviy ma‘nosi bilan bog‘liq hodisalar, ya‘ni o‘z va ko‘chma ma‘no, bir ma‘nolilik va ko‘p ma‘nolilik, so‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari (sinonim, omonim, antonim, paronim, giperiponim, xolo-meronim) tashkil etgan leksikologiya o‘zbek tili leksikasidagi eskirish va yangilanish jarayonlarini ham tahlil etadi.

Ko‘p ma‘noli so‘zlar. Lug‘at tarkibida monosemantik (bir ma‘noli) va birdan ortiq ma‘noga ega *polisemantik* (ko‘p ma‘noli) so‘zlar mavjud. O‘zbek tili lug‘at sathining 80% qismi ko‘p ma‘noli so‘zlar hisoblanadi va har bir polisemantik so‘z kamida ikki, ko‘pi bilan elliktagacha qo‘shimcha ma‘noga ega.

Amaliy tilshunoslikda eng dolzarb masalalardan biri ham har bir so‘zning ayni paytdagi sememalarini aniqlab chiqish hisoblanadi. Chunki muayyan so‘zning turli matnda qo‘llanilishidagi farqni tushunish o‘ta muhim. Tilning pragmatik xususiyatiga oid ushbu fikrni tasdiqlash maqsadida *uzoq* leksemasi yordamida bir misol keltiramiz (2-chizma):




2-chizma. *Uzoq* so‘zining nutqda reallashuvi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *uzoq* so‘ziga to‘rtta izoh berilgan: 1) oraliq masofasi katta, nisbatan narida joylashgan; olis; 2) vaqt e‘tibori bilan davomli katta, ko‘p; 3) do‘stlik, qarindoshlik, tanishlik va sh.k. jihatdan bog‘lanish u qadar yaqin bo‘lmagan, yaqin emas; 4) (ko‘chma) bevosita aloqasi, munosabati yo‘q; aloqasiz [O‘TIL, 2006: 268].

Badiiy asarlardagi ifoda bo‘yog‘i, kundalik turmushda reallashish vaziyatiga muvofiq *uzoq* so‘zining qo‘shimcha ma‘nolari yuzaga keladi: 1) o‘tgan davr (tarix); 2) kelajak haqida fikr yuritish, oqibatini o‘ylab ish ko‘rish (kelajak); 3) miqdorni anglatish, ko‘p; 4) uzunlik o‘lchovi; 5) ishga yuzaki yondashish (yuzakilik); 6) davomli emas, tez fursatda bitadi (qisqa vaqt); 7) uzoqdagi joy. Aynan elektron lug‘atlarni yaratishda hozirda tilning lisoniy va nutqiy imkoniyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi [Abvalova, Erkinov, 2021:160-163].

Omonimiya. Ma’lumki, omonim so‘zlar shakli bir xil, ammo semantikasi turfa xil bo‘lgan leksik birliklar hisoblanadi.

Omonimlar, umumiy holatda quyidagicha tasniflanadi:



3-chizma. Omonimlarning umumiy tasnifi.

Omonimiyani yuzaga keltiruvchi mezonlar:

- 1) yozuvdagi bir xillik (aynanlik);
- 2) grammatik aynanlik
- 3) talaffuzdagi aynanlik (o‘xshashlik emas).

Ham aytilishi (bunda muayyan unli tovush yo‘g‘on yo ingizchka talaffuz qilinmasligi kerak), ham yozuvi aynan, ya’ni bir xil bo‘lgan so‘zlar **sof omonimlar** deyiladi. Ularga, asosan, internatsional yo o‘zlashma bo‘lmagan so‘zlar aynanligi misol bo‘la oladi. Masalan, *uch* (son) *uch* (II shaxs birlikdagi buyruq mayli fe’li), *uch* (biror narsaning tugallangan qismi); *qo‘sh* (juft), *qo‘sh* (II shaxs birlik, buyruq maylidagi fe’li), *qo‘sh* (yer haydash jamlamasi) kabi.

Shartli omonimlar muayyan xususiyatlari, jumladan, 1) talaffuzi; 2) grammatik shaklning birikishi natijasida so‘zshaklning boshqa so‘z bilan bir bo‘lib qolishi; 3) yozilishi (nutq tovushlarining yo‘g‘on yoki ingichka talaffuzi bilan farqlansa-da) bo‘yicha aynanlikka ega bo‘lishidan yuzaga keladi. Shu bois ular nutqiy omonimlar ham hisoblanadi. Ular ushbu uch xususiyatga asosan uch turga bo‘linadi. Ushbu shartli omonimlarning omofon turiga shu vaqtga qadar qilingan ishlarda paronimlardan misollar yozib qo‘yish bilan cheklaniladi. Uning o‘ziga xos xususiyati misollar yordamida aniq va to‘g‘ri tushuntirilmaydi. Shu bois ushbu maqolamizda qisqacha shu masalaga to‘xtalamiz.

Omofonlar – talaffuzi, aytilishi bir xil (aynan), ammo yozilishida biroz, ma’nosi butunlay farqlanish mavjud shakllar. Masalan: *urush* (jang), *urish* (harakat nomi-urmoq), *bukun* (bugun), *bu kun* (o‘sha kun) kabi. Omofonlar, ayrim manbalarda aytilganidek, aynan paronimlar emas. Hatto ayrim adabiyotlarda omofonlar deya paronimga oid misollar keltirilgan. Bu ikki lingvistik hodisa o‘zaro farqlanadi. Bu haqda quyida misollar bilan tushuntirildi.

Paronimlar esa chiroyli so‘zlash, ta’sirchan gapirish va to‘g‘ri yozish – ma’naviy qadriyatlarning alohida ahamiyatga ega bo‘lgan turi. Yoqimli, shirali,

bejirim so‘zlash va yozish tinglovchi va o‘quvchining ham, so‘zlovchi va yozuvchining ham ma’naviyatini ko‘rsatuvchi qadriyatdir. Nutqqa ifodaviylik, go‘zallik, ta’sirchanlik baxsh etadigan lisoniy omillardan biri paronimlardir.

Paronim so‘zi tarkibidagi yunoncha “*para*” – yaqin, yaqinidagi, yondosh, o‘xshash, “*onuma*” – nom degani. Aristotel taklif qilgan paronim atamasi dastlab *otalik – otaliq, bo‘shlik – bo‘shliq, bolali – bolalik* tarzidagi yasama so‘z va so‘zshakllarga nisbatan qo‘llanilgan. Bu kabi so‘zlarning asosidan so‘nggi qo‘shimchalar ma’no farqlash vazifasini bajaradi va nutqda talaffuz o‘xshashligini hosil qilgan. Paronimlar uchun talaffuzdoshlik asosiy mezon hisoblanadi. Masalan, *asr va asir, afzal va abzal, sher va she‘r, adib va adip* kabi so‘z talaffuzda bir xil aytilsa-da, yozilishda farq qiladi. Ma’nosi ham butkul boshqa_boshqa. Paronimni ikki xil yozilishga ega bo‘lgan, ammo ma’nosi bir xil bo‘lgan dubletdan farqlash kerak: **arava – aroba, bekik – berkik, benihoya – benihoyat, gado – gadoy** kabilar paronim emas, balki dublet, variantdosh so‘zlardir.

Omofonlar va paronimlar. Ko‘plab tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham tovush yoki imlo jihatidan o‘xshash, ammo ma’nosi turlicha so‘zlar va so‘zshakllar mavjud. Og‘zaki hamda yozma nutq madaniyati haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxs ma’lum bir kontekstda kerak bo‘lmagan so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llashi mumkin. Bu fikrning ma’nosini buzadi va tushunmovchilikka olib keladi. Shu bois ta’limda so‘zlarning shakl va munosabatiga ko‘ra turlari: sinonim, antonim, omonim, paronim kabilarni sinchkovlik bilan o‘rganishi va ularni o‘rinli qo‘llay bilishi lozim. Masalan,

La’lidan jonimg‘a o‘tlar *yoqilur*,
Qoshi qaddimni jafodin *yo qilur*,
Men vafosi va’dasidin shodmen,
Ul vafo, bilmanki, qilmas *yo qilur*. (Alisher Navoiy)

Mazkur tuyuqda qalin yozuv bilan ajratib ko‘rsatilgan *yoqilur* (yoqiladi), *yo qilur* (yoy qiladi – bukadi), *yo qilur* (yoki qiladi) shakllar yozuvda emas, balki talaffuzdagina aynanlikka ega bo‘lmoqda. Talaffuzda aynanlik, yozuvda biroz farq qiluvchi bunday birliklar tilda omofonlar deyiladi. Masalan, rus tilidagi *no mpu* (uchtadan) va *nompu* (ishqala) so‘zshakllari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ayon bo‘lganidek, ushbu misollardagi so‘zlar turli ma’noli, faqat ayrim grammatik shakllardagina yozilishi va tovushi bir xil bo‘lib qolgan. Bunday hodisa tilshunoslikda omofon deyiladi. **Omofonlar – omonimning bir turi.**

Yana bir misol:


Charxi kajraftor eliding *yoza men*,
Chiqmadim hijron qishidin *yoza (yozga) men*.

Bir meni yorliq bila yod etmas ul,
Har necha ul shahg‘a qulluq *yoza men*. (Mavlono Lutfiy)

Ushbu tuyuqning 1-misrasidagi *yoza men* (yozg‘iraman – shikoyat qilaman) so‘zshakli 4-misradagi *yoza men* (yozaman, bitaman) so‘zshakli bilan omoshakl, ya’ni muayyan grammatik shakllarning aynan bo‘lishi, 2-misradagi *yoza men* (yozga men) so‘zlar birlashmasi 1- va 4-misradagi *yoza men* so‘zshakllariga omofon bo‘lmoqda.

Tilda paronimlar deb nomlanuvchi lingvistik hodisa (masalan, *ekskavator* – *eskalator*, *adil* – *odil*, *pisht* – *kisht* kabi)ni shu vaqtga qadar Sh. Rahmatullayev tushuntirgan dastlabki leksikografik manbadagi [Rahmatullayev, 1984: 67] omofonlar o‘zbek tilshunosligi manbalarida paronimlar hisoblanishi tushuntirib kelingan. Bunga nima sabab bo‘lgan? Asosiy sabab Sh. Rahmatullayev o‘z lug‘atida omofon sifatida paronimlarni ham misol qilib keltirishi bilan belgilanadi. Shu bois keyingi boshqa manbalarda, go‘yoki paronim hodisasi o‘zbek tilshunosligida endi kashf etilganday, omofonlarni paronimlar deb ta’kidlashadi. Ammo amaliy tilshunoslikda ushbu hodisalarni farqlash lozim.

Asosiy farqi: omofon aynan talaffuzga ega, paronimlar esa o‘xshash (4-chizma).



4-chizma. Omofon va paronimlarning farqli jihatlari.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, leksikaning yangilanish va eskirish jarayonlari o‘z ichida bo‘lmay, ekstralingvistik omillar, asosan, yangi innovatsiyalarning paydo bo‘lishi hamda siyosiy tuzumlarning o‘zgarishi va bular ortidan yuzaga keluvchi yangidan yangi faoliyat-jarayonlar, ularning mahsulotlari esa yangi nomlar bilan atalgani sababli bu turdagi leksemalar paydo bo‘ladi. So‘zlarning eskirishi hamda iste’moldan chiqishi esa mavjud narsalarning iste’moldan chiqishi va uni ifodalagan so‘zning ham u bilan birga eskirishi natijasida, qolaversa, so‘zlarning talaffuz iqtisodiga mosi yoxud talaffuzga qulayligi ham sinonim so‘zlardan birining chiqib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin [Dadaboyev va boshq., 2023: 810]. Ammo davr o‘tishi bilan eski so‘zlar yangi ma’no kasb etib “tirilishi” yoxud o‘z ma’nosida zamonaviy hodisa yoki narsa-buyum nomini ifodalashga xizmat qila oladi. Bu holat tilning ijtimoiylikini yana bir bora dalillab beradi va tilda ham “atom hodisalar” borligini asoslaydi. Shuningdek, amaliy tilshunoslikda an’anaviy qo‘llanib kelinayotgan manbalardagi

tadqiqotlarni tanqidiy o‘rganishni taqozo etadi. ushbu maqolada omofon va paronim misolida biz ushbu fikrimizni dalilladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b. ISBN 978-9943-6939-0-6
2. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
3. Abjalova M.A. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 215 b. ISBN 978-9943-7804-5-3.
4. Abjalova M. O‘zNet lingvistik ontologiyasini yaratish loyihasining konsepsiyasi. // O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 1/2022. – B. 123-139.
5. Abjalova M., Erkinov F. Elektron lug‘at va kiberleksikografiya. // O‘zMU xabarleri. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/2021. – B. 160-163.
6. Abjalova M., Geldiyeva X. O‘zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar. // O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 1/2022. – B. 42-67.
7. Abjalova M., Iskandarov O. Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. // IEEE – UBMK – 2021: 6th International Conference on Computer Science and Engineering. 15-16-17 September 2021. Ankara – Turkey. DOI: [10.1109/UBMK52708.2021.9558900](https://doi.org/10.1109/UBMK52708.2021.9558900). – pp. 82-85. Impakt Factor 5.5
8. Abjalova M., Safarova G., Ravshanova N. Zamonaviylashgan va “tirilgan” eski so‘zlar. «Contemporary technologies of computational linguistics – CTCL.2024». International scientific-practical conference: Vol.2 / No. 22.04(2024). – T. – pp. 614-617.
9. Dadaboyev H., Abjalova M., Rashidova U. O‘zbek tili sinonimlarining o‘quv lug‘ati. – Toshkent: BookPrint, 2023. – 810 b.
10. Махмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001.4-сон. 5–7-бетлар.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
12. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 339 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 мингдан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5 жилдли. 2006.
14. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Биринчи жилд. Тошкент, 2000 йил.

15. Шоабдурахимов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezonini sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbalarida ishlangan Azərbaycan antroponimlerinin leksik-semantik tahlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obyektini sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk'</i> ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obyektini sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nalari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of female forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775